

GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Bo'ronova G.I.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda geografik bilimlarni rivojlantirish ularga ta'lim va tarbiyani berishda dars jarayonida qo'llaniladigan turli metodlar jumladan "blits-so'rovnoma" va "T-jadval" metodlari haqida so'z boradi. Ushbu metodlarni dars jarayonida qo'llanilsa o'quvchilarning ekologik savodxonligi va mustaqil fikrlashi hamda uni bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlanishi e'tiborga olingan.

Kalit so'z: ekologik bilim, an'anaviy dars, interfaol metod, metod.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarishga olib keladi. Geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash o'ta muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar tegishli metod noto'g'ri tanlangan bo'lsa o'kituvchi va o'quvchining berganlikdagi faoliyati samarasiz bo'lib koladi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tanlash ma'lum bir tamoillar asosida olib borilmog'i lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalariga asoslangan va bugungi kunda maktabda geografiya ta'limi jarayonida keng qo'llanilayotgan usullar ko'p. Hozirda o'quv jarayoniga «Bumerang», «Charxpalak», «Blits», «Aqliy hujum», «Loyiha», «Klaster», «FSMU», «Agar men..», «Matbuot konferensiyasi», «Tarqatma materiallar muhokamasi» va boshqalar kabi zamonaviy pedagogik interfaol metodlar samarali tadbiq etilmoqda.

Ana shunday bugungi kunda maktab geografiya ta'limi jarayonida keng qo'llanilayotgan usullardan biri bu «blits» metodidir. Qo'yida biz o'rta umumta'lim maktabining 7-sinfida O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'qitishda «blits» metodidan qanday foydalanish va uni ahamiyati to'g'risida ma'lumot bermoqchimiz.

Masalan, O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'qitishda mamlakatimizdagi mavjud suv omborlari va ular maydonlarining ko'lami bo'yicha respublikada qanday o'rinni egallashi haqida ma'lumot berishda, “blits-so'rovnoma” yoki “T- jadval” metodlaridan foydalanish mumkin. Bu metodlar o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishda, ularda mantiqiy fikrlash, o'rganayotgan mavzu asosida turli fikrlardan, ma'lumotlardan keragini tanlab olish kabi jihatlarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu metod shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Metod bir necha bosqichlardan iborat:

T- jadval metodining afzaligi:

- ✓ ta'lim oluvchilarning faolligini oshiradi;
- ✓ yangi o'tiladigan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilimlarini aniqlashga yordam beradi;
- ✓ bir-biriga fikrini o'tkazish, dalilar keltirish ko'nimasi shakllanadi.

Vazifani tushuntirish

Kichik guruxlarni shakllantirish (3 ta)

Guruxlar o'rtasida baxs munozarani shakllantirish

Muxokama, taxlil qilish

Baholash

1-bosqich: o'qituvchi ushbu metod haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga alohida vaqt, ya'ni reglament ajratilishi, o'quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi ogohlantiriladi, qo'yilgan vazifa avval yakka holda bajarilishi tushuntiriladi.

2-bosqich: o'qituvchi o'quvchilarga alohida-alohida tarqatma material beradi va berilgan vazifalarni ketma-ketligini to'g'ri belgilash, belgini alohida ajratilgan bo'limga, ya'ni ustunga raqamlar bilan ko'rsatish uqtiriladi.

3-bosqich: har bir o'quvchi tarqatma materialdagi «yakka baho» ustuniga shu yerda berilgan vazifani shaxsiy fikriga ko'ra mantiqan qanday ketma-ketligida bo'ladi, deb hisoblasa, shunday raqamlar bilan belgilab chiqadi. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilarga vazifaning hajmiga, og'ir yoki yengilligiga qarab vaqt belgilaydi va uni o'quvchilarga e'lon qiladi.

4-bosqich: o'qituvchi o'quvchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so'raydi. Bu guruhlar o'quvchilarning xohishlariga ko'ra yoki raqamlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Izoh: sinfda birinchi stolda o'tirgan o'quvchilar orqaga qaraydi, ikkinchi stolda qolgan bitta o'quvchi orqadagi uchunchi stolga, to'rtinchi stoldagi ikkita o'quvchi beshinchi stolga va h.k.

5-bosqich: kichik guruhlardagi o'quvchilarning har biri yakka baho bo'limidabelgilangan vazifani ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, ya'ni har birlari vaziyatdan kelib chiqqan holda o'z variantlari yoki versiyalarini aytadilar. Albatta bu o'rinda 3 kishidan uch xil fikr chiqadi, har bir o'quvchi o'z fikrini yoqlashi, dalillar bilan isbotlashi, guruh a'zolarini ishontira olishlari kerak bo'ladi. Yuzaga kelgan har xil ketma-ketlikni birlashtirib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirib, kelishgan holda bir to'xtamga keladilar va ularga tarqatilgan materialdagi «guruh bahosi» bo'limiga yana raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

Izoh: o'quvchilar «yakka baho» ustunida o'zlari belgilagan raqamlarga tegmaydilar, o'chirmaydilar. O'qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi. Bu bosqichni bajarish uchun vazifani hajmidan kelib chiqib 5-10 daqiqa vaqt belgilanadi.

6-bosqich: barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, o'qituvchi vazifani ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni aytadi, ya'ni o'quvchilardan ularga tarqatilgan materialdan «to'g'ri javob» ustunini topishlarini va unga o'qituvchi tamonidan aytilgan vazifani, ya'ni raqamlar ketma-ketligini yuqoridan pastga qarab yozishlarini so'raydi.

7-bosqich: o'qituvchi «to'g'ri javob» va «yakka baho» ustunlarida belgilangan raqamlardan nechitasi to'g'ri ekanligini berilgan materialga yozib qo'yishlarini so'raydi.

8-bosqich: xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» ustunlarida belgilangan raqamlardan nechitasi to'g'ri ekanligini berilgan materialga yozib qo'yishlarini so'raydi.

9-bosqich: o'qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi va ularni alohida-alohida sharhlab chiqadi. O'quvchilarning javoblari o'qituvchi tamonidan berilgan «to'g'ri javob»ning yarmidan ko'piga to'g'ri kelgan bo'lsa, ya'ni 55%dan - 75%gacha, «qoniqarli» - «3», 76%dan – 85%gacha, «yaxshi» - «4», 86%dan – 100%gacha, «a'lo» - «5»ga baholanishi mumkin.

10-bosqich: tarqatma materiallar yig'ib olinadi va baholar e'lon qilinadi.

«Blits» metodi ta'lim-tarbiya jarayonida yakka holda, kichik guruh va jamoa bo'lib ishlashda yaxshi samara beradi. Bu metod o'quvchilarni dars jarayonida matnlar bilan ishlashlariga, o'tilgan mavzuni mustahkamlashlariga va yodda saqlab qolishlariga, bilmaganlarini bilib olishlariga, bilganlarini esa takrorlashlariga va eng asosiysi o'zlashtirish darajalarini aniqlashga, ya'ni hammani baholashga, rag'batlantirishga qaratilgan.

O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyati tashkil etilgan sharoitda;

har ikkala tomon ijobiy natijaga erishadi;

- o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlaydilar;

topshiriqga ijodiy yondashish natijasida, izlanuvchanlik yuqori darajada bo'ladi;

natijani mustaqil ravishda tahlil qila oladilar;

xulosalar chiqarishga o'rganadilar;

o'zlariga, kichik guruhga, umuman guruh a'zolariga ob'yektiv baho berishni o'rganadilar;

Bularning barchasi esa o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Shunday qilib, ta'lim texnologiyalari o'quvchi-o'quvchilarning bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olish, ta'lim muammolarini yecha olish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI*
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T., O'qituvchi, 1996.
3. Darinskiy A.V. "Metodika prepodavaniya geografii". Moskva, "Prosvesheniya", 1975.

4. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi, 2001 y.
5. Xoldorova, G. (2021). Mirzacho'lda atrof-muhitni monitoring qilish masalalari. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, (1)
6. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI*.
7. Topildiev V.R. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. –T., 2015. 164-bet.
8. Hakimov, K. M., Xoldorova, G. M., & Ermatova, N. N. K. (2017). Printsipy i osnovnye polozeniya nominatsii geograficheskix ob'ektov. *Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya*, (4 (86)).